

**EKOLOGIK GUMANIZM KONSEPSIYASINING NAZARIY ASOSLARI VA  
METODOLOGIK PRINSIPLARI****Axmedov X.A. -***Nizomiy nomidagi O'zMPU dotsenti  
falsafa fanlari nomzodi*

Zamonaviy ekologik inqiroz insoniyatni yangicha falsafiy-metodologik paradigma izlashga majbur qilmoqda. Tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar inqirozi nafaqat amaliy ekologik muammolarni, balki chuqur nazariy-metodologik masalalarni ham kun tartibiga qo'yimoqda. Bu kontekstda ekologik gumanizm konsepsiyasi inson va tabiat munosabatlarini tubdan qayta ko'rib chiqishga imkon beruvchi mustahkam nazariy baza sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ekologik gumanizmning nazariy asoslari turli falsafiy maktablar, ilmiy tadqiqotlar va ma'naviy an'analarda ildiz otgan. Ushbu konsepsiya inson qadr-qimmatini tabiat bilan uyg'unlikda anglashni, ekologik ongni rivojlantirishni va kelajak avlodlar oldidagi mas'uliyatni ta'kidlaydi. Metodologik jihatdan ekologik gumanizm sistemaviy yondashuv, rivojlanish prinsipi va mejdissiplinar integratsiyaga asoslanadi, bu esa murakkab ekologik muammolarni kompleks hal qilish imkoniyatini beradi.

Ekologik gumanizmning nazariy asoslari bir necha asosiy yo'nalishlarda rivojlangan. Birinchi navbatda, rus olimi V.I.Vernadskiy biosfera va noosfera konsepsiyalarini ishlab chiqib, inson aqli tabiat evolyusiyasining muhim omiliga aylanishi zarurligini asosladi [1]. Uning fikricha, «biosfera asta-sekin noosferaga – aql sferasiga aylanmoqda, bu jarayonda inson ongi ekotizimlarning rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi» [1]. Bu konsepsiya ekologik gumanizmning metodologik poydevorini tashkil etdi.

Biosfera va uning funksional qonuniyatlari to'g'risida E.Gekkel tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega [2]. U biologik turlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va ekotizimlarning muvozanatini ta'minlash mexanizmlarini ochib berdi. Gekkelning ta'kidlashicha, «tabiatda hamma narsa o'zaro bog'liq bo'lib, bir elementning buzilishi butun tizimga ta'sir qiladi» [2]. Bu xulosa zamonaviy sistemaviy ekologiya uchun fundamental tushuncha bo'ldi.

Metodologik jihatdan sistemaviy yondashuvning ekologik tadqiqotlardagi o'rni alohida ahamiyatga ega. L. fon Bertalanfi umumiy sistemalar nazariyasini ishlab chiqib, «sistemaning xossalari uning alohida elementlari yig'indisidan o'zgacha bo'lib, butunlikda yangi sifatlar paydo bo'ladi» degan prinsipni ilgari surdi [3]. Bu metodologik asos ekologik muammolarni kompleks, xolistik tarzda tadqiq etish zarurligini ko'rsatadi.

Ekologik etika sohasida Gans Yonas mas'uliyat falsafasini rivojlantirib, kelajak avlodlar oldida insoniyatning axloqiy javobgarligini asosladi [4]. Uning «Mas'uliyat prinsipi» asarida keltirilgan «Shunday harakat qilki, sening faoliyatingning oqibatlari Yer yuzidagi haqiqiy inson hayotining davomiyligi bilan moslashadigan bo'lsin» [4] imperativi ekologik gumanizmning etik asoslarini belgilaydi.

Tabiat falsafasining rivojlanishida E.Lerya va P.Teyyar de Shardenning xizmatlari alohida o'rin tutadi [5]. Ular noosfera tushunchasini kengaytirib, inson ongining planetar miqyosdagi rolini ko'rsatdilar. Leruaning ta'kidlashicha, «inson aqli tabiatning yangi bosqichi bo'lib, u materiyaning anglangan o'zgarishi jarayonini boshlaydi» [5]. Bu fikr ekologik gumanizm konsepsiyasining ontologik asosini tashkil etadi.

Postmodern falsafada tabiat va jamiyat o'rtasidagi chegaralarni dekon struksiya qilish g'oyasi Bruno Latur tomonidan rivojlantirildi [6]. Uning aktor-tarmoq nazariyasi tabiiy ob'ektlarni ham ijtimoiy jarayonlarning faol ishtirokchilari deb baholaydi. Latur ta'kidlaganidek, «biz hech qachon zamonaviy bo'lmaganmiz, ya'ni inson va tabiat o'rtasidagi sun'iy chegaralarni buzish kerak» [6]. Bu yondashuv ekologik gumanizmning metodologik bazasini kengaytiradi.

O'zbekistonda ekologik falsafa masalalari S.Mamashokirov va E.Usmonovlar tomonidan tizimli o'rganilgan [7]. Ularning tadqiqotlarida barqaror taraqqiyotning ekologik xavfsizlik masalalari, Markaziy Osiyo mintaqasi uchun xos xususiyatlar tahlil qilingan. Mualliflar

ta'kidlashlaricha, «ekologik muammolar nafaqat tabiiy, balki ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy omillar bilan ham chambarchas bog'liq» [7].

Q.Nazarov va X.To'xtaevning «Aksiologiya: Qadriyatlar falsafasi» asarida ekologik qadriyatlarining zamonaviy aksiologik tizimdagi o'rnini ko'rsatilgan [8]. Mualliflar fikricha, «ekologik qadriyatlar insoniyatning uzoq muddatli mavjudligi uchun strategik ahamiyatga ega bo'lib, ularni milliy ma'naviyat tizimiga integratsiyalashtirish zarur» [8]. Bu xulosa ekogumanistik qadriyatlarni milliy kontekstga moslashtirish imkoniyatlarini ochib beradi.

Sotsial falsafa kontekstida T.Parsonsnings ijtimoiy harakat tuzilishi nazariyasi muhim metodologik qurol hisoblanadi [9]. U «ijtimoiy harakatlar qadriyatli yo'naltirilgan bo'lib, inson faoliyati ma'lum ma'naviy-axloqiy koordinatalarda amalga oshadi» deb ta'kidlaydi [9]. Bu yondashuv ekologik xulq-atvorni shakllantirishda qadriyatli orientirlarning ahamiyatini ko'rsatadi.

Jahon falsafa tarixida F.Nissshening qadriyatlarni qayta baholash g'oyasi ham ekologik gumanizm uchun muhimdir [10]. Garchand u to'g'ridan-to'g'ri ekologik masalalar bilan shug'ullanmagan bo'lsa-da, uning «insonning tabiiy instinktlarini bostirish sivilizatsiya inqiroziga olib keladi» [10] degan xulosasi zamonaviy ekofalsafa uchun qimmatli.

Ekologik gumanizm konsepsiyasining nazariy asoslari uch asosiy komponentga asoslanadi: ontologik, gnoseologik va aksiologik. Ontologik komponent inson va tabiatning birligini tan olishni, ularni ajralmas selostnost sifatida talqin etishni anglatadi. Bu yondashuv antropotsentrik dunyoqarashdan farqli ravishda, insonni tabiatning tashqi kuzatuvchisi emas, balki uning ajralmas qismi deb qaraydi. Gnoseologik komponent esa tabiatni idrok etishning yangi usullarini ishlab chiqishni talab etadi, bunda nafaqat ratsional bilimlar, balki intuitiv anglash, emotsional muloqot ham ahamiyatga ega.

Aksiologik jihatdan ekologik gumanizm qadriyatlarie rarxiasini qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Klassik gumanizm inson qadr-qimmatini markazga qo'ygan bo'lsa, ekogumanizm tabiatning o'z-o'zida qadriyatga egaligini tan oladi. Bu degani, inson manfaatlarini inkor etish emas, aksincha ularni kengroq, tabiiy dunyo bilan uyg'unlikda talqin etishdir. Shu tariqa, ekologik qadriyatlar inson qadriyatlari bilan ziddiyatmas, balki ularni boyituvchi va to'ldiruvchi sifatda namoyon bo'ladi.

Metodologik prinsiplar jihatidan ekologik gumanizm sistemaviy yondashuvga asoslanadi. Bu prinsip ekologik muammolarni izolyatsiyada emas, balki kengroq ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy kontekstda ko'rib chiqishni talab qiladi. Sistemaviy tahlil shuni ko'rsatadiki, ekologik inqiroz alohida muammolar yig'indisi emas, balki inson va tabiat munosabatlarining tizimli buzilishidir. Shuning uchun hal qilish strategiyasi ham tizimli, kompleks bo'lishi kerak.

Rivojlanish prinsipi ekologik gumanizm metodologiyasining ikkinchi asosiy ustunidir. Bu prinsip inson va tabiat munosabatlarini statik emas, balki dinamik, tarixiy rivojlanuvchi jarayon sifatida tushunishni anglatadi. Evolyusion yondashuv shuni ko'rsatadiki, hozirgi ekologik inqiroz ma'lum tarixiy sharoitlar mahsuli bo'lib, u ham ijtimoiy evolyusiyaja jarayonida o'zgarib borishi mumkin. Biroq, bu o'zgarishlar ongli, maqsadli harakatlar natijasida yuz berishi kerak.

Ekologik gumanizm konsepsiyasida inson tabiatining triadik talqini muhim o'rin tutadi. Inson biologik mavjudot, ijtimoiy shaxs va ma'naviy individ sifatida uchta o'zaro bog'liq qatlamdan iborat. Biologik qatlam insonning tabiiy ekotizimlardagi o'rnini belgilasa, ijtimoiy qatlam uning jamiyatdagi faoliyatini, ma'naviy qatlam esa qadriyatli orientirlari va ongini tashkil etadi. Bu uch qatlamning garmonik rivojlanishi ekologik muvozanatning shartidir.

Biologik qatlamda inson tabiatning boshqa turlari kabi muayyan ekologik nishaga ega. Uning fiziologik ehtiyojlari, metabolizmi, reproduktiv funksiyalari tabiiy qonuniyatlarga bo'ysunadi. Biroq, inson biologik ehtiyojlarini qondirishda texnologik vositalardan foydalanish orqali tabiiy chegaralarni kengaytirdi. Bu imkoniyatlar noto'g'ri ishlatilganda ekologik muvozanatni buzadi, shuning uchun biologik va texnologik omillarning o'zaro muvofiqlashtirilishi zarur.

Ijtimoiy qatlam inson faoliyatining tashkiliy shakllarini, ishlab chiqarish munosabatlarini, institutsional tuzilmalarni o'z ichiga oladi. Hozirgi davr uchun istemolchilik jamiyati modelining ustunligi xos bo'lib, bu model tabiiy resurslarni cheksiz ekspluatatsiya qilish mantiqiga asoslangan.

Ekologik gumanizm nuqtai nazaridan, istemolchilik paradigmasini barqaror rivojlanish paradigmasiga almashtirish ijtimoiy qatlamning ekologik transformatsiyasining asosiy vazifasidir.

Ma'naviy qatlamda ekologik ong, tabiatga nisbatan estetik va etik munosabatlar, kelajak avlodlar oldidagi mas'uliyat tuyg'usi shakllanadi. Ma'naviy qatlamning rivojlanganligi inson xulq-atvorining ekologik yo'nalishini belgilaydi. Zamonaviy ta'lim va tarbiya tizimida ekologik ma'naviyatni shakllantirish ustuvor vazifa bo'lishi kerak, chunki qonun va iqtisodiy mexanizmlar ekologik muammolarni to'liq hal qila olmaydi, buni faqat ma'naviy-axloqiy transformatsiya amalga oshiradi.

Ekologik gumanizm konsepsiyasining amaliyotga tatbiq etilishi bir necha yo'nalishda amalga oshirilishi mumkin. Birinchi yo'nalish – ta'lim tizimini ekogumanistik tamoyillar asosida qayta qurish. Bunga barcha ta'lim darajalarida ekologik fanlarni kiritish, mejdissiplinar integratsiyani kuchaytirish, amaliy ekologik loyihalar tashkil etish kiradi. Ikkinchi yo'nalish – iqtisodiy mexanizmlarni ekologiyalashtirish, ya'ni chiziqli iqtisodiyotdan aylanma iqtisodiyotga o'tish, "yashil" texnologiyalarni rag'batlantirish, ekologik zararni iqtisodiy baholash tizimini joriy etish.

Uchinchi yo'nalish – huquqiy-institutsional baza yaratish bo'lib, bunda ekologik gumanizm prinsiplari qonun hujjatlarida mustahkamlanadi, tabiiy ob'ektlarning huquqiy sub'ektligi tan olinadi, kelajak avlodlarning manfaatlarini ximoya qiluvchi institutlar tashkil etiladi. To'rtinchi yo'nalish esa ma'naviy-madaniy transformatsiya bo'lib, ommaviy axborot vositalari, san'at, adabiyot orqali ekologik ongni targ'ib qilish, milliy an'analardagi tabiatparvarlik qadriyatlarini qayta tiklash va zamonaviy shakllarda rivojlantirish kiradi.

O'zbekiston kontekstida ekologik gumanizm konsepsiyasini amalga oshirish uchun milliy xususiyatlarni hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Markaziy Osiyo madaniyatida tabiatga hurmat, suv resurslarini qadrlash, yer onaga munosabat an'analari chuqur ildizlarga ega. Buyuk ajdodlarimiz Beruniy, Farobiy, Navoiylarning asarlarida tabiat haqidagi chuqur bilimlar va unga etik munosabat ifodalangan. Bu ma'naviy meros zamonaviy ekologik gumanizm tamoyillari bilan sintez qilinishi mumkin va milliy barqaror rivojlanish strategiyasining asosini tashkil etishi kerak.

Metodologik jihatdan ekologik gumanizm tadqiqotlarida bir necha asosiy prinsiplarga rioya qilish lozim. Birinchi prinsip – xolizm, ya'ni ekologik muammolarni butunlik xolida, turli fanlar – biologiya, ekologiya, sotsiologiya, iqtisodiyot, psixologiya, etika – o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikda o'rganish. Ikkinchi prinsip – koevolusiyasi, ya'ni inson va tabiatning o'zaro moslashuvchan, birgalikda rivojlanishi konsepsiyasiga asoslanish.

Uchinchi prinsip – refleksivlik, ya'ni tadqiqotchining o'z faoliyati va qarashlarining ekologik oqibatlarini anglashi va ular ustida muntazam fikr yuritishi. To'rtinchi prinsip – prognostik yo'nalganlik, ya'ni nafaqat hozirgi holatni tahlil qilish, balki kelajakdagi ssenariylarni ishlab chiqish va ulardan kelib chiquvchi ekologik tahdidlarni aniqlash. Beshinchi prinsip – partitsipatorlik, ya'ni ekologik muammolarni hal qilishda barcha manfaatdor tomonlar – jamoat tashkilotlari, mahalliy aholi, biznes sub'ektlari, davlat organlari – faol ishtirokini ta'minlash. Ekologik gumanizm konsepsiyasining epistemologik jihatlari alohida tahlilni talab etadi. An'anaviy pozitivistik ilm-fan tabiatni neytral ob'ekt sifatida o'rgangan bo'lsa, ekogumanistik epistemologiya inson va tabiat o'rtasidagi muloqotga, dialogga asoslanadi. Bu yondashuv tabiatni passiv tadqiqot ob'ektidan faol hamkorga aylantiradi. Shu munosabat bilan, ilmiy bilim nafaqat ratsional-diskursiv, balki intuitiv-empatik komponentlarni ham o'z ichiga olishi kerak. Globallashuv sharoitida ekologik gumanizm xalqaro kontekstda ham muhim ahamiyatga ega. Turli madaniyatlarning ekologik donishmandligi – korennoy xalqlarning tabiat bilan yashash usullari, Sharq falsafasining tabiat uyg'unligi prinsiplari, G'arb ilmiy maktablarining ekologik tadqiqotlari – bir-birini to'ldiradi va global ekogumanistik paradigmaning shakllanishiga hissa qo'shadi. Bu ma'noda ekologik gumanizm universal xarakterga ega bo'lgan xolda, milliy va mintaqaviy xususiyatlarni ham hurmat qiladi.

Texnologik progress va ekologik gumanizm munosabati qarama-qarshilikdan xoli emas. Bir tomondan, zamonaviy texnologiyalar ekologik muammolarni hal qilishda katta imkoniyatlarni taklif etadi – qayta tiklanuvchi energiya manbalari, chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalari, bioremediatsiya usullari. Ikkinchi tomondan, texnologik determinizm xavfi mavjud, ya'ni

texnologiyaga ortiqcha ishonch ekologik mas'uliyatni kamaytirishi mumkin. Ekogumanistik yondashuv texnologiyani vositali qurol sifatida qarab, asosiy e'tiborni inson ongi va qadriyatlari transformatsiyasiga qaratadi.

Ekologik gumanizm konsepsiyasining nazariy asoslari va metodologik prinsiplari zamonaviy falsafa, tabiiy fanlar va ijtimoiy ilmlarning yutuqlariga asoslangan xolda shakllanmoqda. Tadqiqotning asosiy xulosalari quyidagilardan iborat. Birinchidan, ekologik gumanizm inson va tabiat munosabatlarining yangicha paradigmasi sifatida ontologik, gnoseologik va aksiologik komponentlarni o'z ichiga oladi va ularning birgalikdagi rivojlanishi kompleks metodologik baza yaratadi.

Ikkinchidan, sistemaviy yondashuv va rivojlanish prinsipi ekologik muammolarni tadqiq etishning fundamental metodologik asoslaridir, ular ekologik jarayonlarni xolistik, dinamik va o'zaro bog'liq xolda anglashga imkon beradi. Uchinchidan, inson tabiatining triadik talqini – biologik, ijtimoiy va ma'naviy qatlamlar selostligi – ekologik gumanizmning antropologik bazasini tashkil etadi va uning amaliyotga tatbiq etilishida metodologik yo'lboshchi vazifasini bajaradi.

To'rtinchidan, ekologik gumanizm konsepsiyasi mejdissiplinar xarakterga ega bo'lib, tabiiy fanlar, ijtimoiy ilmlar va gumanitar bilimlarning sintezi asosida shakllanadi. Beshinchidan, milliy ma'naviy meros va zamonaviy ekofalsafaning integratsiyasi har bir mamlakat va mintaqa uchun o'ziga xos ekogumanistik model yaratish imkoniyatini beradi.

Amaliy takliflar sifatida quyidagilarni kiritish mumkin. Birinchidan, oliy ta'lim muassasalarida «Ekologik gumanizm asoslari» fanini kiritish va barcha mutaxassisliklarda ekologik komponentni kuchaytirish zarur. Ikkinchidan, ilmiy tadqiqotlarda mejdissiplinar yondashuvni qo'llab-quvvatlash, ekologik-gumanitar tadqiqotlar uchun maxsus grantlar ajratish, ilmiy markazlar tashkil etish lozim.

Uchinchidan, milliy barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda ekologik gumanizm prinsiplarini bazaviy asos sifatida qabul qilish, bunda milliy ma'naviy meros bilan zamonaviy ekofalsafaning sintezi amalga oshirilishi kerak. To'rtinchidan, jamoatchilikning ekologik ongini oshirish uchun ommaviy axborot vositalari, san'at, adabiyot orqali ekogumanistik qadriyatlarni targ'ib qilish dasturlarini ishlab chiqish talab etiladi.

Beshinchidan, mahalliy va mintaqaviy darajada ekologik gumanizm prinsiplariga asoslangan amaliy loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish – ekologik turizm, organik qishloq xo'jaligi, yashil shaharsozlik, chiqindilarni minimallashtirish dasturlari. Oltinchidan, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, ekologik gumanizm bo'yicha tajriba almashinuvi, birgalikdagi tadqiqot loyihalari, ilmiy konferensiyalar tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, ekologik gumanizm konsepsiyasi nafaqat nazariy-metodologik konstruksiya, balki zamonaviy ekologik inqirozni yengish uchun amaliy yo'l xaritasi hisoblanadi. Uning nazariy asoslari klassik falsafa, tabiiy fanlar va zamonaviy ekofalsafaning yutuqlariga asoslangan bo'lsa, metodologik prinsiplari sistemaviylik, xolizm, koevolyusiya, refleksivlik va partitsipatorlik tamoyillarini o'z ichiga oladi. Ekologik gumanizmning kelajagi uning nafaqat ilmiy tadqiqotlarda, balki ta'lim, siyosat, iqtisodiyot va madaniyat sohalarida keng tatbiq etilishiga bog'liq. Bu konsepsiyani hayotga tatbiq etish orqali insoniyatning tabiat bilan garmonik, barqaror rivojlanishi ta'minlanishi mumkin.

#### ADABIYOTLAR:

1. Вернадский, В., И. (2004). Биосфера и ноосфера. – Москва: Айрис-пресс, 576
2. Геккель, Э. (1906). Мировые загадки. Общедоступные этюды по монистической философии. Санкт-Петербург: Типография Т-ва «Общественная Польза», 448 с.
3. Бергаланфи, Л. (1969). Общая теория систем – критический обзор. *Исследования по общей теории систем.* – Москва: Прогресс, 23-82.
4. Йонас, Г. (2004). Принцип ответственности. Опыт этики для технологической цивилизации. – Москва: Айрис-пресс, 480 с.
5. Леруа, Э. (1989). Происхождение человека и эволюция разума. – Москва: Московский рабочий, 95 с.

6. Latour, B. (1993). We Have Never Been Modern. Cambridge: Harvard University Press, 168 p.
7. Усманов, Э., М. (2007). Социально-философский анализ глобализации экологической политики: Докторлик диссертацияси. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Университети, 285 б.
8. Nazarov, Q., To'xtaev, X. (2022). Aksiologiya: Qadriyatlar falsafasi. – Toshkent: Universitet, 276 b.
9. Парсонс, Т. (2000). О структуре социального действия. Москва: Академический проект, 880 с.
10. Ницше, Ф. (1990). К генеалогии морали. Сочинения в 2 т. Т. 2. – Москва: Мысль, 407-524 с.

#### REZYUME:

Maqolada ekologik gumanizm konsepsiyasining nazariy asoslari va metodologik prinsiplari tizimli tahlil qilinadi. Inson va tabiat munosabatlarining falsafiy interpretatsiyasi, ekologik ongning shakllanish mexanizmlari, sistemaviy va rivojlanish prinsiplarining ekologik tadqiqotlarda qo'llanilishi ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** ekologik gumanizm, sistemaviy yondashuv, metodologik prinsiplar, inson tabiati, biota, noosfera, ekologik ong, antropotsentrizm, sotsiopriroda, ekofalsafa.

#### РЕЗЮМЕ:

В статье проводится системный анализ теоретических основ и методологических принципов концепции экологического гуманизма. Раскрываются философская интерпретация взаимоотношений человека и природы, механизмы формирования экологического сознания, применение принципов системности и развития в экологических исследованиях.

**Ключевые слова:** экологический гуманизм, системный подход, методологические принципы, природа человека, биота, ноосфера, экологическое сознание, антропоцентризм, социоприрода, экофилософия.

#### RESUME:

The article provides a systematic analysis of the theoretical foundations and methodological principles of the ecological humanism concept. The philosophical interpretation of human-nature relationships, mechanisms of ecological consciousness formation, and the application of systematic and development principles in ecological research are revealed.

**Keywords:** ecological humanism, systematic approach, methodological principles, human nature, biota, noosphere, ecological consciousness, anthropocentrism, socionature, ecophilosophy.